

INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA INVESTITSION MUHITNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Davletova Nargiza

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0009-9618-6738

davletovanargiza@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakat miqyosida, xususan har bir hudud doirasida investitsion muhitni yaxshilash va shu asnoda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish masalalarining nazariy hamda amaliy jihatlari olib berilgan. Shuningdek, investitsiyalarni jalb qilishda investitsion muhitni takomillashtirishning asosiy omillari va xususiyatlariiga oid yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, investitsion muhit, huquqiy tizim, infrastruktura, makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy qulaylik, investitsion imtiyozlar.

ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ ПРИ ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ

Давлетова Наргиза

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В статье раскрываются теоретические и практические аспекты улучшения инвестиционного климата на национальном уровне, особенно в каждом регионе, и одновременного ускорения привлечения прямых иностранных инвестиций. Также рассматриваются подходы к основным факторам и характеристикам улучшения инвестиционного климата в сфере привлечения инвестиций.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный климат, правовая система, инфраструктура, макроэкономическая стабильность, финансовое удобство, инвестиционные стимулы.

SPECIFIC ASPECTS OF THE INVESTMENT CLIMATE IN ATTRACTING INVESTMENTS

Davletova Nargiza

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article reveals the theoretical and practical aspects of improving the investment climate at the national level, in particular within each region, and thereby accelerating the attraction of foreign direct investment. It also covers approaches to the main factors and features of improving the investment climate in attracting investments.

Keywords: investments, investment climate, legal system, infrastructure, macroeconomic stability, financial convenience, investment incentives.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida investitsiyalarni jalg etish tizimiga ta'sir etuvchi asosiy faktor – **investitsion muhit** va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanishi hech kimga sir emas. Bugungi kunda, xalqaro darajada moliyaviy globallashuvning kuchayishi, investitsiya bozorlaridagi raqobatning ortishi bilan, har bir mamlakat investitsion muhitni tubdan yaxshilash orqali xorijiy investitsiyalarni jalg etishga e'tiborni kuchaytirmoqda.

Tabiiyki, bizning yurtimizda ham investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida so'nggi yillarda keng ko'lamma iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda va bu islohotlar investorlar uchun qulay sharoit yaratish va mamlakatning iqtisodiy potensialini oshirishga qaratilgan. Masalan, **investitsiyalarni faol jalg etish sohasida** — makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, sog'lom raqobat uchun zarur sharoitlarni yaratish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, iqtisodiyotda davlat ishtirokini jiddiy ravishda kamaytirish, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, «xufyona» iqtisodiyotga qarshi kurashish va uning ulushini keskin qisqartirish, valyuta siyosatini erkinlashtirishni davom ettirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan birligina 2019 yilning 25 dekabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "**Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida**"gi (Qonun, 2012) qonunning o'zi, ushbu masalalarga mamlakatimizda e'tibor qanchalik yuksak ekanligini ko'rsatib berishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy izlanishda investitsion muhitni rivojlantirishning asosiy omillari va xususiyatlarini o'rghanish jarayonida bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning yondashuvlari ham inobatga olingan.

Masalan, Xorijiy olimlardan – Taraqqiyot tadqiqotlari instituti (IDS, University of Sussex) vakillari Mur va Shmitslarning (Moore & Schmitz, 2008) fikricha, investitsion muhitning yaxshilanishi kapitalni investitsiyalashdagi risklarni pasaytirish imkonini ko'zda tutadi.

Shuningdek, Tereshenko Dmitriy, Sherbakov Vasiliy kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan, "investitsion muhit keng ma'noda "investitsiyalar bilan bog'liq daromad va xavflarga ta'sir qiluvchi mavjud va kutilayotgan **siyosat, institutsional va xatti-harakatlar muhiti**" sifatida ta'riflanishi mumkin" (Терешенко & Шербаков, 2015). Dj.Douns va G.Elliotning ta'kidlashlaricha esa "investitsion muhit investitsiyalar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa sharoitlardir" (Douns & Goodman, 2017).

Iqtisodiyot bo'yicha taniqli olim Dolad Ed ning fikricha qulay investitsiya muhitini yaratishda mamlakatning iqtisodiy sharoiti asosiy ro'l o'ynaydi. Uning ta'kidlashicha, "inflyatsiya darajasi, valyuta barqarorligi va moliyaviy resurslardan foydalanish mamlakatning investorlar uchun jozibadorligini belgilovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridir". Bundan tashqari, yalpi ichki mahsulot darajasi, soliq tizimi va kredit resurslarining mayjudligi sezilarli ta'sir ko'rsatadi. (Dolan, 2017)

Rus olimlaridan Baldin (2020) investitsiya muhitiga ta'rif berishda, uni investorlarga prognoz qilish imkoniyatini beruvchi omillardan iboratligini ta'kidlagan holda yondashadi. Uning fikricha, investitsiya muhiti - bu kapital qo'yilmalar risk darajasi va ularidan samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilab beradigan **siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, maishiy, iqlim, tabiiy, infratuzilma va boshqa omillarning birlashmasi** (Балдин, 2020) deb hisoblaydi.

Basenko va Taranovlar (2016) esa "investitsion muhit", "investitsion iqlim" kabi kategoriyalarning mazmuni "biznes muhiti" tushunchasiga yaqin deb qarab, uni kapitalni qo'yishning risklilik darajasi va aniq obyektga investitsiya qilishning jozibadorligi darajasini shakllantiruvchi tashqi shart-sharoitlar majmui sifatida talqin etadilar (Басенко & Таранов, 2016).

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Vaxabov, Xajibakiyev, Muminovlar (2010) esa “investitsiya muhit bu - xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan **iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir**” (Vahabov & Hajibakiyev, 2010)- deya ta'kidlaganlar. Shuningdek, iqtisodchi olimlardan Mamatov, Xujamkulov va Nurbekovlarning (2014) fikricha, investitsiyaviy jozibadorlik – mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan biror-bir korxona **investitsiyalarining daromadliligi, rivojlanish istiqbollari va investitsiya riski darajasi nuqtayi nazaridan baholanishi** (Mamatov & Nurbekov, 2014), deya ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, tanlangan mavzu doirasida ba'zi mualliflar tomonidan ta'kidlab o'tilganidek, investitsion muhitni yaxshilash masalalarida mamlakatning investitsion portfelini shakllantirishda diversifikatsiya prinsipiga qattiq rioya etish muhimdir.

Umumlashtirib aytganda, ilmiy izlanish doirasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar, ko'plab olim va izlanuvchilarining ilmiy tadqiqotlari natijalari, mutasaddi davlat organlari tomonidan olib borilayotgan amaliy ishlar samaradorligi va natijalari inobatga olingan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy ish doirasida kompleks yondashuv, statistik modellash, komparativ tahlil, solishtirma va sintez kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan bo'lib, ushbu metodologiyalar natijalaridan kelib chiqqan holda umumiylar hulosalar chiqarilgan.

Xususan, iqtisodiy, huquqiy, institutsional va ijtimoiy omillarni birgalikda baholash doirasida, kompleks yondashuv ishlatilgan bo'lsa, investitsion jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarni son jihatidan baholash (investitsiyalar hajmi, xorijiy investorlarning ulushi) orqali statistik metodlardan foydalanildi.

Shuningdek, turli mamlakatning investitsion muhitni rivojlantirish borasidagi tajribasini solishtirishda komparativ metodlarga murojaat etilgan bo'lsa, investitsion muhitning tarkibiy qismlarini (iqtisodiy o'sish, inflyatsiya darajasi, YAIM, huquqiy omillar, ijtimoiy omillar, investitsion muhitning umumiy holati, investorlar uchun xavf-xatar va imkoniyatlar) o'rghanishda va umumiy xulosalar chiqarishda sintez metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Globallashuv va raqamli iqtisodiyot rivojlanib borayotgan bir paytda, investitsiyalar nafaqat moliyaviy manba, balki mamlakatning iqtisodiy o'sish va rivojlanishining muhim vositasiga aylangan. Biroq, investitsiyalarni jalg etish — bu tasodifiy jarayon emas, balki yaxshi investitsiya muhitini yaratish asosida qurilgan murakkab strategyaning natjasidir. Shunday ekan, investitsiya muhitini shakllantiradigan asosiy jihatlarni o'rghanish dolzarb mavzulardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bilamizki har bir mamlakatning **huquqiy bazasi – investorlar ishonchining asosi hisoblanadi**. Shuning uchun ham aniq, shaffof va barqaror qonunlarsiz investitsiyalarni jalg etish deyarli imkonsizdir. Investorlar, xox bu katta korporatsiyalar yoki shaxsiy shaxslar bo'lsin, ularning huquqlari ximoyalanganiga va qoidalar har daqiqada o'zgarmasligiga ishonch hosil qilishni istaydilar. (Ручкина & Лапина, 2022)

Huquqiy bazaning muhim elementi bo'lib esa, mulkiy huquqlarning ximoya qilinishi hisoblanadi. Mulk huquqlari aniq qonunlar bilan mustahkamlangan va ximoyalangan mamlakatlarda investorlar o'zlarini yaxshi his qiladilar. Misol uchun, Skandinaviya mamlakatlari yoki Singapurda mulk huquqlarining yuqori darajada ximoyalangani chet el kapitalini jalg etishning asosiy omillaridan bir bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, byurokratik jarayonlarni soddalashtirish muhim ro'l o'ynashi hech kimga sir emas. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish bir necha kunni olmaydigan va ruxsatnomalarni olish uchun uzun muddatli kelishuvlar talab qilmaydigan mamlakatlarda investorlar pul

sarflashga ko'proq tayyor bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy barqarorlik — bu investitsiya muhitining yana bir asosiy ustunidir. Investorlar ehtimoliy xavfni minimallashtirishni maqsad qiladi va ularning qaroriga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri makroiqtisodiy barqarorlikdir. Albatta, bu infliyatsiyaning past darajasi, milliy valyutaning barqaror kursi va davlat budgetining muvozanatlilagini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari mamlakatdagi soliq siyosati ham muhim rol o'ynaydi. Irlandiya yoki Shveysariya kabi investorlar uchun soliq stavkalari va imtiyozlarga ega bo'lgan mamlakatlar katta miqdorda kapitalni jalg etayotgani barchaga ma'lum. (Ireland, 2025)

Biroq, past soliq stavkalari mavjudligi, investitsiyalarni jalg etishda yagona asosiy omil emasligini ta'kidlash lozim. Chunki, investorlar, shuningdek, soliq tizimining shaffofligi va yashirin to'lovlarning yo'qligiga e'tibor beradilar.

Ta'kidlash joizki, rivojlangan bank tizimi va mavjud kredit resurslari mamlakatni investitsiyalar uchun juda jozibali qiladi. Masalan, Germaniya yoki Yaponiyadagi rivojlangan moliyaviy infratuzilma, investorlarga o'z loyihibarini amalga oshirish uchun osonlik bilan kredit olish imkoniyatini beradi. (Saravanakumar, 2023)

Shuningdek, rivojlangan **infratuzilma** — bu nafaqat "qulaylik", balki muvaffaqiyatli biznes uchun zaruriyatdir. Rivojlangan transport, energetika va raqamli infratuzilmasiz investitsiyalarni jalg etish juda qiyin bo'ladi. Bunda transport, energetika va raqamli infratuzilmalarning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bilamizki, **transport infratuzilmasi**, yo'llar, temir yo'l tarmoqlari, aeroportlar va portlarni o'z ichiga oladi, logistika va tovarlarni yetkazib berishda asosiy ro'l o'ynaydi. Masalan, Xitoy yuqori tezlikdagi temir yo'llar va portlarni qurishga faol investitsiyalar kiritish orqali, jaxon savdosida liderlardan biriga aylangan. (John Cockburn., 2013)

Energetika infratuzilmasi xam muhimdir, chunki ishonchli energiya ta'minoti va zamonaviy energiya manbalariga kirish ishlab chiqarish yoki IT kabi ko'p sohalar uchun majburiy shartdir.

O'z navbatida **raqamli infratuzilma** raqamli iqtisodiyot davrida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalari kompaniyalarga global bozorda samarali ishlash imkoniyatini beradi.

Masalan, Janubiy Koreya yoki Estoniyada rivojlangan raqamli infratuzilma yuqori texnologiya sohalariga investitsiyalarni jalg etishga katta zamin yaratadi.

Siyosiy barqarorlik - uzuq muddatli investitsiyalar uchun asosdir. Bu investorlarning qaroriga ta'sir ko'rsatadigan yana bir asosiy omildir. Siyosiy nobarqarorlik, inqiloblar yoki hukumatning keskin almashinishi xatto eng jiddiy investorlarni xaydashi mumkin.

Shveysariya yoki Germaniya kabi barqaror siyosiy tizimga ega bo'lgan mamlakatlar o'zlarining aniqligi tufayli kapitalni jalg etadi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar va kelishuvlarda ishtirok etish investorlarning ishonchini oshiradi. Bu borada, korrupsiyaga qarshi kurash xam muhim rol o'ynaydi. Davlat jarayonlarining shaffofligi va korrupsiyaga qarshi samarali kurash mamlakatni investitsiyalar uchun juda jozibali qiladi. Masalan, Singapur yoki Daniyada korrupsiyaning past darajasi chet el kapitalini jalg etishning asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda **Innovatsiyalar va texnologiyalar iqtisodiy o'sishning dvigatevi ekanligi barchaga ma'lum**. Xozirgi global iqtisodiyotning jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan bir davrda, ya'ni raqamli iqtisodiyot davrida innovatsiyalar investitsiyalar uchun kurashning asosiy vositasiga aylangan. Texnologiyalarga e'tibor qatarayotgan mamlakatlar nafaqat kapital, balki talantlarni xam jalg etayotganligini barchamiz guvohi bo'lishimiz mumkin.

AQSHdagi Silikon vodiysi, Izraildagi texnologiya klasterlari yoki Estoniyadagi startap ekosistemasi — bu innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning dvigateli bo'lishining misollaridir. (Jerome S.Emgel., 2011)

Yuqorida aytib o'tilganidek investitsiyalarni jalb qilish borasida bugungi kunda mamlakatlararo jadal **raqobat ketmoqda**. Shunday ekan, har bir mamlakat investitsiyalar uchun kurashadigan dunyoda o'zini ajratib ko'rsatishni bilish muhimdir. Foydali geografiyaviy joylashuv, resurslarga kirish yoki maxsus iqtisodiy siyosat kabi unikal ustunliklar xal qiluvchi bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro arenada o'z imkoniyatlarini faol tarzda targ'ib etish investorlarning e'tiborini jalb etishta yordam beradi. Masalan, BAA xalqaro ko'rgazmalar va marketing orqali kapitalni jalb etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda investitsiya muhiti — muvozanat san'atidir. Yaxshi investitsiya muhitini yaratish, bu iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jihatlar o'rtasida muvozanatni talab qiladigan murakkab jarayondir. Shu sababli investorlarga barqarorlik, shaffoflik va unikal imkoniyatlarni taklif qiladigan mamlakatlar g'olib chiqadi. Chunki zamonaviy dunyoda investitsiyalar — bu nafaqat pul, balki ishonchdir va faqat uni qozonganlar global iqtisodiyotda muvaffaqiyatga erishadi.

Buning uchun esa, quyidagi yo'naliislarda ishlarni jadallashtirish taklif etiladi.

Birinchidan, Bugungi kunda mamlakatimizda davlat korxonalarini xususiylashtirish orqali investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish borasida katta imkoniyatlar yaratib berilmoxda. Albatta, bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish maqsadga muvofikdir.

Ikkinchidan, transport infratuzilmasini yaxshilash borasida erishilayotgan yutiqlar ham taxsinga loyiq. Birgina misol, "Xitoy-Kirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li qurilishi" loyihasining amalga oshirilishi, yurtimizga qanchalik ulkan imkoniyatlarni ochib berishini hech kim inkor eta olmaydi.

Biroq ushbu sohada rejalashtirilgan loyihalar uzoq muddatli ekanligini inobatga olib, ularni amalda ishga tushirish masalalariga e'tibor qaratish foydadan holi bo'lmaydi.

Uchinchidan, iqtisodiyotning rivojlanishi bevosita energetika sohasi bilan chambarchas bog'liqligini barcha yaxshi tushinadi. Shunday ekan, energetika sohasidagi loyihalarni amalga oshirish, ayniqsa, qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish borasidagi loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish maqsadga muvofikdir.

To'rtinchidan, Investorlar va davlat o'rtafigi nizolarni hal etish uchun arbitraj sudlarining faoliyatini keng yo'lga qo'yish lozim. Chunki aynan shu omil sababli ko'plab investorlar yurtimizga o'z mablag'larini kiritishga ikkinlanib turishini oldini olish talab etiladi. Shuningdek, investorlar uchun huquqiy maslahat xizmatlarini kengaytirish, ularning huquq va majburiyatları to'g'risida to'liq va aniq ma'lumot berish orqali kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini olish mumkin. Bu chora-tadbirlar mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirishga hamda xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga ijobiylar ta'sir ko'rsatadi.

Beshinchidan, Texnologiya va innovatsiyalarga investitsiyalarni qo'llab quvvatlash kerak, chunki aynan shu sohalar bugungi zamon talablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot markazlari va xususiy biznes o'rtafigi hamkorlikni yanada rivojlantirish orqali innovatsion g'oyalarni tezroq hayotga tatbiq etish sharoitlarini yaratish lozim. Ilmiy-tadqiqot muassasalari va xususiy sektor o'rtafigi hamkorlikni rivojlantirish natijasida innovatsion yechimlarni tezkor joriy etish imkoniyati kengayadi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotga yo'naltirilgan sarmoyalarni oshirish hamda sun'iy intellekt, biotexnologiya va nanotexnologiya kabi ilg'or yo'naliislarni qo'llab-quvvatlash zarur. Bu esa mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirib, uning xalqaro maydonidagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oltinchidan, Xalqaro tashkilotlar bilan investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofikdir. Bu yondashuv xorijiy

investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshirib, iqtisodiy o'sish dinamikasini tezlashtirishga ko'maklashadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik orqali ilg'or texnologiyalar va innovatsion tajribalarni mahalliy iqtisodiyotga tatbiq etish imkoniyati yaratiladi.

Yettinchidan, Investorlar uchun barcha xizmatlarni bir markazda ko'rsatish tizimini joriy etish asosiy takliflardan biri bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda, ushbu taklifning amalda ishga tushirilishi yurtimizga investorlarning kelishini yanada jadallashtirishi mumkin.

Sakkizinchidan, Davlat tomonidan investorlarga mablag' ajratish, ya'ni xususiy banklar tomonidan kredit resurslari ajratilishini rag'batlantirish orqali ularni ba'zi muammolarini hal etilishini ta'minlash ham investorlarni jalb qilishda yana bir imkoniyat yaratishi mumkin.

Adabiyotlar / Литература/Reference:

Dolan, E., (2017). *Quality of Government, Not Size, Is the Key to Freedom and Prosperity.* Available at: <https://evonomics.com/quality-government-not-size-key-freedom-prosperity/> [Accessed 15 03 2025].

Douns , D. & Goodman, D., (2017). *Финансово-инвестиционный словарь.* Издание:3. Издательство.:Инфра-М.

Ireland, (2025). Corporate - Withholding taxes. Available at: <https://taxsummaries.pwc.com/ireland/corporate/withholding-taxes> [Accessed 07 03 2025].

Jerome S.Emgel, I. d.-P., (2011). *Global Cluster of ISrael and Silicon Valley. California Review Management*, Issue 53, pp. 10-25.

John Cockburn., Y. D., (2013). *Infrastructure and Economic Growth in Asia.* Issue:3 Nyu York: s.n.

Mamatov D., J. D. N. O., (2014) *Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.* Toshkent: s.n.

Moore, M. & Schmitz, H., (2008). *Idealism, realism and the investment cimate in developing countries.* Institute of Development Studies, Issue 307, pp. 30-50.

Saravanakumar, N., (2023). Economic Stability. Available at: <https://www.wallstreetmojo.com/economic-stability/> [Accessed 06 03 2025].

Vahabov, A. & Hajibakiyev, S., (2010). *Хорижий инвестициялар.* Тошкент: s.n.

Балдин, К., (2020). *Инвестиции: системный анализ и управление.* Издание:4 Издательство:Дашков и К.

Басенко, А. & Таранов, А., (2016). Особые экономические зоны как институциональный инструмент мобилизации инвестиционно-финансового потенциала территориального развития. *Финансовые исследования*, Issue 50, pp. 10-27.

Ручкина, Г. & Лапина, М., (2022). *Правовые и финансово-экономические средства достижения целей устойчивого развития.* Издательство:Прометей.

Терещенко, Д. & Шербаков, В., (2015). *Влияние экономических и политических институтов на инвестиционные процессы в регионе.* ECONSTOR, Issue 33, pp. 11-38.

Qonun (2012) *O'zbekiston Respublikasining 25.12yildagi O'RQ-598-soni*.